



ILMIY AXBOROTNOMA

№ 2, 2025

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN

BUXORO PSIXOLOGIYA VA
XORIJIY TILLAR INSTITUTI



ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 2, 2025



<http://buxpxti.uz>

[illegible]

ГУВОХНОМА

№ 064916

"BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIIY TILLAR INSTITUTI" MASULIYATI
CHEKLANGAN JAMIYAT

Саммаий аъборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги
қувонома

PHOTOCHEMICAL REACTION OF 2,4-DINITROPHENOL
C. S. CHEN

СЫМ ЖОЛҒАҚ ТҮСІМНІҢ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАЦИОНАЛ

ANALYTICAL METHODS
OF THE 2000s

ЖИВОТАЛИНКА НА КРАТКО (ТОЧНА МАТЕРИЈА)

Synopses by NORTA, Kofia Fyngaa, TS, NAOSHSANOF MEY HJODON

ALGORITHM 1071

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Администрацияси қўриққанида Ахборот ва оммавий коммуникациялар бўлими ахборотига асосан

22.02.2023 12:34
Twinkl Ltd 31/01/2023 12:34



Cytotoxicity

NOT CITED.

Descript term

Смисловий вибір висвітлює набуття філософії шляхом освіти.

Құшынча мағыналар

WILLIAM M. MORTIMER, JR.

Символик ахборот воситасининг номи	Символик ахборот воситасининг тили	Символик ахборот воситасининг тури
BUXORO PSIXOLOGIYA VA KADRLAR TAYYARLASH INSTITUTI ILMIY AXBOROTINOMASI	O'ZBEKRUSS, RUS, INGLIZ	Журнал

ТАРКАТУНДУХУРДЖИ БАШКУТ

Тароғлиққа қўйиладиган шарт	Қўйиладиган	Тароғлиққа қўйиладиган
Республика мақсада		Араласқан

22.02.2023 12:34
Twinkl Ltd 31/01/2023 12:34



**BUXORO
PSIXOLOGIYA VA
XORIJIY TILLAR
INSTITUTI ILMIY
AXBOROTNOMASI**

ilmiy-amaliy jurnal
2-son
Buxoro - 2025. - 368 b.

Buxoro - 2025. - 368 b.

**Научный вестник
Бухарского
института
психологии и
иностранных
языков**
научно-практический
журнал
Выпуск 2.
Бухара - 2025. - 368 с.

Jurnal Buxoro psixologiya
va xorijiy tillar instituti
muassisligidagi nashr
hisoblanadi.

**Jurnalning nashr sifati
uchun bosmaxona
javobgar.**

OBUNA INDEKSI 3062

Jurnal tahririyat kompyuterida
sahifalandi.
Bosishga ruxsat etildi 19.03.2025
Qog'oz bichimi 60x84, 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 23
Buyurtma № 41. Adadi - 60
Bahosi kelishilgan narxda.
«Sharq-Buxoro» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
Buxoro shahar O'zbekiston
Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46



ISSN 3030-3710 (P)

ISSN 3030-3095 (E)

**BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY
AXBOROTNOMASI
ilmiy-amaliy jurnal**

**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY
AND FOREIGN LANGUAGES
scientific and practical journal**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ
И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ
научно-практический журнал**

№ 2, 2025

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
<http://buxpxti.uz/>, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
<https://t.me/OstanovSH>

Radjabov Ruslan Rajabmurodovich
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
<https://orcid.org/0000-0002-1565-1119>
Jumaboyeva Marjona Farhod qizi
Buxoro davlat universiteti talabasi

FRANSUZ TILIDA ZAMONLAR MOSLASHUVI

Annotatsiya. Zamonlar moslashuvi fransuz tili grammatikasining asosiy jihati bo'lib, fikrlarni ifodalashda ravshanlik va izchillikni ta'minlaydi. Zamonlar moslashuvini o'zlashtirish yozma va og'zaki ifodani boyitibgina qolmay, balki fransuz tilidagi nuanslarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Muvofiqlik qoidalariga amal qilish orqali suhbatdoshlarga tasvirlangan harakatlar va hodisalar o'rtasidagi vaqtinchalik munosabatlarni osongina tushunishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: grammatika, fe'llar, zamonlar, bosh gap, ergash gap, ish-harakat, mayl, subjunktif, antériorité, simultanéité, postériorité.

СООТВЕТСТВИЕ ВРЕМЕН ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ.

Аннотация. Согласование времен является ключевым аспектом французской грамматики, обеспечивающим ясность и последовательность выражения мыслей. Освоение правил спряжения времен не только обогащает вашу письменную и устную речь, но и позволяет лучше понимать нюансы французского языка. Соблюдение правил связности позволяет собеседникам легко понимать временные связи между описываемыми действиями и событиями.

Ключевые слова: грамматика, глаголы, времена, сказуемое, придаточное предложение, действие, наклонение, сослагательное наклонение, предшествование, одновременность, последовательность.

CONCORDANCE OF TENSES IN FRENCH.

Abstract. Concordance of tenses is a key aspect of French grammar, providing clarity and consistency in expressing thoughts. Mastering the rules of conjugation of tenses not only enriches your written and spoken language, but also allows you to better understand the nuances of the French language. Compliance with the rules of coherence allows interlocutors to easily understand the temporal connections between the actions and events described.


Keywords: grammar, verbs, tenses, predicate, subordinate clause, action, mood, subjunctive mood, precedence, simultaneity, succession.

Kirish: Zamonlar moslashuvi - bosh gapdagi fe'l va gapdagi ergash gapning mayli va zamon kelishigini tartibga soluvchi grammatik qoidalar majmui hisoblanadi. Fransuz tilidagi zamonlar moslashuvi (concordance des temps) – jumladagi fe'l zamonlari o'rtasidagi kelishuvni anglatadi, ayniqsa bir nechta gaplar bir-biriga bog'langanda. Bu asosan, bir vaqt ichida sodir bo'lgan harakatlar yoki voqealar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashda aniqlik va izchillikni saqlash uchun zarurdir.

Je pense qu'il fera chaud demain.

Bu gapda "Je pense" bosh gap, "qu'il fera chaud demain" to'g'ridan-to'g'ri ergash gap.

• Ergash bo'lakning fe'li oldin (**antériorité**), bir vaqtda (**simultanéité**) yoki keyin (**postériorité**) bo'ladigan ish-harakatni ifodalanishiga qarab bosh bo'lak fe'li bilan moslashib keladi. Buni mana bu jadval ko'rinishida ko'rsatish mumkin :



Misol : *Je **pense** qu'il sera trop tard.*

Bu yerda asosiy fe'l hozirgi zamonda, tobe bo'lakda esa biz mantiqiy ravishda kelajak ko'rsatkichidan foydalanamiz, chunki harakat keyin sodir bo'ladi ("il sera trop tard *après*").

• Biroq, fransuz tilida, zamonlar moslashuviga bo'ysunish uchun faqat xronologiya mantiqiga oldin (**antérieurité**), bir vaqtda (**simultanéité**) yoki keyin (**postérieurité**) emas, balki ma'lum grammatik qoidalarga ham rioya qilish kerak. Ayniqsa, asosiy fe'l o'tgan zamonda bo'lsa. Masalan :
*Je **pensais** qu'il serait trop tard.*

Metodlar:

Bu yerda bosh fe'l o'tgan zamonda, aniqrog'i imparfait zamonda. Tobe ergash gapda grammatik jihatdan kelasi zamonni ishlatish mumkin emas.

*Je **pensais** qu'il (sera) trop tard.*

Demak, zamonlar moslashuviga rioya qilish uchun bu ergash gapga o'tgan zamonda kelajak vazifasini bajaradigan conditionnel présentni qo'yish kerak.

*Je **pensais** qu'il serait trop tard.*

Batafsil misollarda ko'rib chiqamiz.

• Ergash gap bosh gapdan oldingi ish-harakatni ifodalagan gaplarda.

*Je **pense** qu'il a compris.*

-> bosh gapning fe'li hozirgi zamonda, ergash gapning fe'li esa o'tgan zamonda.

*Je **pensais** qu'il avait compris.*

-> bosh gapning fe'li o'tgan zamon davom fe'li ya'ni imparfaitda, ergash gapning fe'li esa uzoq o'tgan zamonda (plus-que-parfait).

Albatta, oldin bo'lib o'tgan ish harakatni ifodalash uchun ko'plab boshqa imkoniyatlar ham mavjud, ammo bu tuzilmalar eng ko'p uchraydi.

• Endi ergash gap bosh gap bilan bir vaqtda ish-harakatni ifodalagan gaplarni ko'rib chiqamiz.

*Je **crois** que les filles chantent.*

-> bosh gapning fe'li hozirgi zamonda, ergash gapning fe'li ham hozirgi zamonda.

*Je **crois** que les filles chantaient.*

-> bosh gapning fe'li imparfait zamonda, ergash gapning fe'li ham imparfait zamonda.

E'tibor beradigan bo'lsak, ikkinchi gapda bosh gapning zamoni imparfait da turibdi. Agar biz passé composé yoki passé simple kabi boshqa o'tgan zamonni ishlatgan bo'lsak, ergash gapdagi fe'l ham imparfaitda qolgan bo'lar edi, chunki bu zamon o'tmishda ish-harakat bir vaqtda bo'lib o'tganligini ifodalash uchun ishlatiladi:

*J'**ai cru** que les filles chantaient.*

*Je **crus** que les filles chantaient.*

• Ergash gap bosh gapdan keyin sodir bo'lgan ish-harakatni ifodalagan gaplarni ko'rib chiqsak.

*Il **dit** qu'il finira bientôt ce projet.*

-> bosh gapning fe'li hozirgi zamonda, ergash gapning fe'li esa kelasi zamonda.

*Il **a dit** qu'il finirait bientôt ce projet.*

-> bosh gapning fe'li o'tgan zamonda, ergash gapning fe'li esa conditionnel présent zamonda.

➤ Istisnolar

Ba'zi konstruksiyalar, ayniqsa, kundalik yoki so'zlashuv tilida o'zgarishlarga yo'l qo'yishi mumkin, ammo rasmiy muloqot qoidalariga rioya qilish yaxshiroq.

• Présent + futur : *Je **sais** qu'il viendra.* (Men bilaman u keladi *endi*).

- Passé composé + imparfait : *Elle a dit qu'elle était fatiguée.* (U charchaganini aytdi).
- Conditionnel + imparfait : *Si j'avais su, je serais venu.* (Agar bilganimda kelardim).

Fransuz tilida istak maylining qo'llanilishi ham zamonlar moslashuviga bog'liq. Masalan, bosh gapda VOULOIR fe'lidan foydalanilsa, ergash gapda istak maylini qo'yish kerak: *Il **veux** que tu **viennes** à son anniversaire!*

Bu xuddi shunday istak, shubha, zarurat va hokazolarni ifodalovchi ko'plab fe'llarga ham tegishli.

• Biroq zamonlar moslashuvining istak mayli bilan kelishi har doim ham an'anaviy grammatik qoidalarga muvofiq bajarilmaydi. Darhaqiqat, nazariy jihatdan, agar bosh gapning zamoni o'tgan zamonda bo'lsa, biz bir vaqtning o'zida (**simultanéité**) yoki keyin (**postériorité**) belgilash uchun imparfait subjontivdan foydalanishimiz kerak: *Il **voulait** que tu **vinsses** à son anniversaire.*

Ammo, bugungi kunda fransuz tilida subjontif imparfait qo'llanilmay qolayotgani uchun (badiiy adabiyotdan tashqari), bosh gapning zamoni o'tgan zamonda bo'lsa ham, ergash gapda subjontif présentdan foydalaniladi : *Il **voulait** qu'elle **viene** à son anniversaire.*

• Boshqa tomondan, oldin bulgan ish-harakatni belgilash uchun hali ham subjontif passé dan foydalaniladi: *Je **regrette** que tu ne **sois pas venu** à mon anniversaire hier soir.* Shuni aytishimiz mumkinki, zamonlar moslashuvi hozirgi vaqtda fransuz tilida subjontivda qisman, faqatgina **subjontif présent** va **subjontif passé** zamonlari ishlatiladi. Subjontivning boshqa zamonlari (imparfait va plus-que-parfait) esa adabiy yoki juda rasmiy til uchungina ishlatiladi.

Natijalar va Munozara: Quyidagi jadvallarda fransuz tilida zamonlar moslashuvini to'liqroq ko'rishimiz mumkin :

PRINCIPALE - - - - - SUBORDONNÉE

(Bosh gap) (Ergash gap)

Je parle des hommes ----- qui ne savent pas aimer.

Je m'en irai ----- quand j'en aurai marre.

Je ne croyais pas ----- que tu étais méchant

1) Agar ergash gap bosh gapdan oldin kelsa, **antériorité** (ish-harakat oldin bo'lib o'tgan) mavjud hisoblanadi:

Temps de la proposition noyau (principale) (bosh gap)	Temps de la subordonnée au passé (ergash gap)
PRESENT (hozirgi zamon) <i>Tu me racontes... Il pense...</i>	PASSE COMPOSE (o'tgan zamon) <i>... ce que tu as fait? ... qu'elle est allée au marché.</i>
IMPARFAIT (o'tgan zamon davom fe'li) <i>Il ne comprenait pas...</i>	PLUS-QUE-PARFAIT (uzoq o'tgan zamon) <i>... ce qu'on lui avait expliqué.</i>
PASSE SIMPLE (sodda o'tgan zamon) <i>Il sortit de sa cachette...</i>	PASSE ANTERIEUR (murakkab o'tgan zamon) <i>... quand tous les voleurs furent partis.</i>
PASSE COMPOSE (o'tgan zamon) <i>Il pensa ...</i>	PLUS-QUE-PARFAIT(uzoq o'tgan zamon) <i>... qu'elle était allée au marché</i>

2) Tobe ergash gap bosh gap bilan bir vaqtda kelsa: **simultanéité** (ish-harakat bir vaqtda bo'lib o'tgan) mavjud hisoblanadi:

(gapdagi barcha fe'llar uchun bir xil zamonlardan foydalanamiz)

Temps de la proposition noyau (principale) (bosh gap)	Temps de la subordonnée (ergash gap)
PRESENT (hozirgi zamon) <i>Il dit...</i>	PRESENT (hozirgi zamon) <i>... qu'il revient</i>
FUTUR (kelasi zamon)	FUTUR (kelasi zamon)

<i>Je ferai du vélo...</i>	<i>... quand j'en aurai envie.</i>
IMPARFAIT (o'tgan zamon davom fe'li) <i>Il préférerait...</i>	IMPARFAIT (o'tgan zamon davom fe'li) <i>... les gens qui étaient d'accord avec lui.</i>

3) Agar ergash gap bosh gapdan keyin kelsa, **postériorité** (ish-harakat keyin bo'lib o'tgan) mavjud hisoblanadi:

Temps de la proposition noyau (principale) (bosh gap)	Temps de la subordonnée (ergash gap)
PRESENT (hozirgi zamon) <i>Il dit...</i> <i>Il ne sait pas...</i>	FUTUR (kelasi zamon) <i>... qu'il reviendra.</i> <i>... où il ira.</i>
PASSE COMPOSE / PASSE SIMPLE (o'tgan zamon / sodda o'tgan zamon) <i>Il a affirmé / Il affirma...</i>	CONDITIONNEL (= futur dans le passé) (shart mayli zamoni) <i>... qu'il reviendrait.</i>
IMPARFAIT (o'tgan zamon davom fe'li) <i>Il ne savait pas...</i>	CONDITIONNEL(shart mayli zamoni) <i>... où il irait.</i>
PASSE COMPOSE (o'tgan zamon) <i>Il a dit...</i>	CONDITIONNEL(shart mayli zamoni) <i>... qu'il reviendrait.</i>
PLUS-QUE-PARFAIT (uzoq o'tgan zamon) <i>Il avait déjà fini son dessert...</i>	PASSE COMPOSE (o'tgan zamon) <i>... quand nous avons commencé le repas.</i>

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Zamonlar moslashuvini o'zlashtirish yozma va og'zaki ifodani boyitibgina qolmay, balki fransuz tilidagi nuanslarni yaxshiroq tushunishga ham hissa qo'shadi.

Zamonlar moslashuvi, asosan, xabar berish va fikr almashishda aniqlikni ta'minlaydi. Bu qoidalar orqali fransuz tilida grammatik jihatdan to'g'ri jumalarni tuzish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mallina L.E. Andreychikova L.P. Turniyozov Yo. *Grammaire française*. Toshkent. 1978
2. Beschèrelle. *La grammaire pour tous*. Paris. 1997.
3. И.Н.Попова. *Практическая грамматика французского языка*. 12 издание, Nestor academic publisher. Москва.2003год.
4. A.E.Mamatov, M.M.Mirxoliqov, A.S.Asqarov. *Fransuz tilining amaliy grammatikasi*. O'quv qo'llanma
5. a. Toshkent. 2015 yil.
6. Radjabov, Ruslan. "Tilshunoslar ahamiyatidagi tinish belgilarining dastlabki sharhlari." *Scientific-theoretical journal of International education research* 1.1 (2023): 97-100.
7. Radjabov, R. (2023). *Fransuz tili orfoepiyasining shakllanish bosqichlari*. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 30(30).
8. Radjabov, R. (2023). *Orfografiya fransuz tili orfografiyasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar: orfografiya to'g'risidagi olimlarning nazariy qarashlari*. *Центр научных публикаций (Buxdu. uz)*, 27(27).
9. Ruslan, R. (2023). *Points de vue scientifiques sur les normes orthoépiques françaises*. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 726-730.
10. Ruslan, R. (2023). *À propos du terme orthoépique*. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 731-735.
11. Radjabov, R. (2022). *Scientific Opinions of Scholars on the use of The Term. Future" In Slavic and Persian*. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 16.